



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

| <u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u> | <u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u> |
|---|--|
| <p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p> | <ol style="list-style-type: none"> 1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц. 2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН) 3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА 4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya 5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор 6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор 7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор 8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц 9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б. 10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф. 11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф 12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц. 13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц. 15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц 16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. 17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD) 18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц 19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD) 20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц 22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD) |
| <p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p> | |
| <p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p> | |
| <p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p> | |
| <p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p> | |

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

TALABALARDA TIZIMLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna, Usanov Ulug'bek Nurulla o'g'li

JDPI Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchilari.

Ismatullayev Otabek

JDPI Maxsus pedagogika yo'nalishi 1 - kurs magistri

Annotatsiya: Zamon talablariga mos ravishda o'quvchi va talabalar har qanday muammoga mantiqiy jihatdan yonoshib ularni oson yechimini topishlari zarur bo'lib, buning uchun ularda tizimli tafakkurni rivojlantirish kerak bo'ladi. Ushbu maqolada tizimli tafakkurni rivojlantirish yo'llari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: tizimlilik, izchillilik, tafakkur, ko'rsatmalilik, tizimli tafakkur.

Zamonaviy gnoseologiyada tizimli tafakkur borliqdagi murakkablikni o'rganishda adekvat tafakkur tarzi sifatida tadqiq etilmoqda. Tizimli tafakkur nima? Bir qator tadqiqotlarda u shunday ta'riflanadi: tafakkurning eng rivojlangan shakli (*Аверьянов А. Системное познания мира: методологические проблемы. Москва, “Политиздат”, 1985. Стр. 263*); “aqlning sifat jihatdan yangi holati” (*Толкачев В. Роскошь системного мышления. Санкт-Петербург, “Эмпатия”, 1999. Стр. 347*); “atrof muhitni tasvirlash va bilishning yangi usuli bo'lib, u narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratadi.

Zamonaviy olam shitob o'zgarmoqda, murakkablashmoqdaki, tizimli tafakkur oldimizdagi bor imkoniyatlarni yaxshiroq ko'rish, qo'llash va boshqarishga yordam beradi (*Медоуз Д. Азбука системного мышления. Москва, БИНОМ. “Лаборатория знаний”, 2011. Стр.150*).

Tizimli tafakkur narsa-hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bir-birining inkori sifatida emas, balki yaxlitlikni quruvchi elementlar sifatida ko'rishni taqozo etadi. Olam yaxlit tizim ekan, u haqdagi dunyoqarashimiz ham tizimli bo'lishi zarur. Shunda olam haqidagi bilimlarimiz adekvatlik kasb etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarda tizimli tafakkurni rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon didaktikasi o'qitishda dars mazmunining muqobil tuzilishini tanlash, o'qitishdagi didaktikaning tizimlilik qoidasini hisobga olishni talab qiladi. Ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun o'rganilgan bilim kecha o'rganilganlarni mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganiga zamin hozirlasin.

Ta'limning tizimli bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'likdir. Izchillikka asoslangan ta'limning xarakteri belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil

qilish, ularning o'zaro bog'lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlar ni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim ko'nikma va malakalarini y ana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan dir. Tizimlilik va izchillik o'quvchilarda har qaysi o'quv fanlarining birbiri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ko'rsatishda ham muhim a hamiyatga ega. Ta'limning tizimli bo'lishi qoidasi bayon qilinayotgan o'quv mat eriallarini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilis hini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarni hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Tizimlilik va izchillik qoidalari o'zaro bog'liq bo'lgan alohida o'quv fanlarini hamda o'quv fanlarini mantiqiy jihatdan bir biriga mustahkam bog'liq xolda va muayan bir tartibda o'qitish hamda tartib jarayo nida o'quvchilarni tizimli ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirib olishlar ini ta'minlaydi. Binobarin, o'quv fanlarining har biri, hatto, ayrim mavzu va ma vzuchalari ham, shubhasiz, tarbiyalovchilik xarakterga ega. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan bir ga, bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiy atga ega.

Maktab ta'limida o'quvchilar tabiiy fanlarni-matematika, kimyo, biologiya, astronomiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish orqali ilmiy e'tiqodlari shakllana b oradi. Ular dunyoni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar, haqiq atga ishonch bilan, yolg'on narsalarga nafrat bilan qaray oladigan bo'ladilar.

Didaktikada ta'limni ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'lab borish eng asosiy va yetakchi qoidadir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan matemat ika, fizika, biologiya, kimyo, astronomiya va boshqa tabiiy fanlardan o'zlashtirilg an nazariy bilim, ko'nikma va malakalar o'quv tajriba xonalari va laboratoriyal ari, zamonaviy texnika vositalari, tajriba yer uchastkalari va ishlab chiqarish me hnati jarayonida qo'llaniladi.

Bu mashg'ulotlar ularni kelgusida murakkab ilmiy nazariyalarni amalda qo'l- lay olishlari uchun zarur bo'lgan tajriba bilan qurollantiriladi. Ta'lim jarayonida na zariya bilan amaliyotning birligi qoidasini izchillik bilan amalga oshirilishi oqib atidagina o'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur mahorat, ko' nikma va malakalar hosil qilish qiladilar. O'quvchilarda tizimli tafakkurni rivojlantirishda yana bir muhim jihat ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi ham amaliy

ahamiyatga ega bo'lib, u o'qitish jarayoning sifatini orttiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. O'qitishning kursatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishga bog'liq muayan hissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o'zlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, murakkab muammolarni yechishda, to'g'ri yechim izlab topishda tizimli tafakkur samarali instrument bo'lib xizmat qiladi. Bunday tafakkur yuritishda har bir muammo tizimli xarakterga ega ekani e'tirof etiladi va uni hal qilishda birgina emas, ko'plab muammolarni yechish talab etiladi. Tizimli muammolarni yechish ham tizimli tafakkurga bog'liq. Zero, zamonaviy voqelikdagi ko'plab muammolar, inqirozlarning kelib chiqishi ham tizimli tafakkurdagi oqsoqlik bilan bog'liqdir. Shu jihatlarni hisobga olib o'quvchi va talabalarni ta'lim jarayonlarida tizimli tafakkurini rivojlantirishga kuchli e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Munavvarov. Pedagogika T-1996 y
- 2.Tursunov I. Nishonaliev Pedagogika kursi T-1996 y
- 3.Mavlonova R Pedagogika T-2001 y
- 4.Komenskiy G`Buyuk didaktikaG` T-1975 y
- 5.Likachev Pedagogika M-2000 y
- 6.Pedagogika nazariyasi ma`ruzalar matni prof Xasanboev N